

## O‘ZBEK VA KOREYS TILLARIDA MAQOLLAR VA IBORALARNING O‘XSHASHLIKLARI

**Xusniddinova Sitora**

*O‘zbekiston Davlat jahon tillari universiteti  
Sharq filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola koreys va o‘zbek tillaridagi maqol va iboralarining o‘xshashlik va farqli jihatlarini yoritib beradi.*

**Kalit so‘zlar:** *koreys tili, xalq og‘zaki ijodi, ibora, o‘zbek tili, madaniyat.*

Maqol – xalq og‘zaki ijodi janri; qisqa va lo‘nda, obrazli va obrasiz, Grammatik va mantiqiy tugal ma‘noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli janr. Muayyan ritmik shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan. Asrlar davomida xalq orasida sayqallanib, ixcham va poetik shaklga kelgan. Har bir tilning nozikligi va badiiyligi sezilari darajada o‘sha xalqning xalq og‘zaki ijodi bilan uzviy bog‘liq. Nutqimizning boyligini ifodalashimiz uchun bunday badiiyat namunalari xalqimizning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining maxsulidir.

Ibora- biror-bir tushuncha yoki gapning bir so‘z bilan ifodalanishi, ya‘ni turg‘un bog‘lama. Masalan: "qovog‘idan qor yog‘yapti", "kapalagi uchdi", "tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq", "qovun tushirdi" va boshqalar. Ibora o‘zi ifodalayotgan tushuncha bilan bir so‘zga teng, lekin uslubiy bo‘yoqdorligi sababli bu tenglik buziladi. Ibora har doim uslubiy bo‘yoqdor bo‘ladi.

Biz qaysi til, qaysi millat maqollarini, iboralarini solishtirsak ham, ular o‘rtasidagi o‘ziga xos farqlarni va albatta o‘xshashliklarni ko‘rishimiz mumkin. Qaysi til, qaysi millat bo‘lishidan qat‘i nazar xalq maqollari tarbiya masalasiga borib taqaladi va o‘z ichiga keng ko‘lamli mavzularni qamrab oladi. Mehnat, qiyinchilik, tarbiya, insoniy qadriyatlar mavzulari maqollarning bosh g‘oyaviylikini ko‘rsatadi. Biz nutqimizda ibora va maqollardan foydalanish orqali so‘z boyligimiz ko‘pligini va nutqimiz yanada ta‘sirchan bo‘lishini ta‘minlaymiz.

Quyida bir qancha o‘zbek va koreys maqollarini va iboralarini ko‘rib chiqamiz va tahlil qilamiz:

골치가 아프다- ushbu ibora koreys tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilinganda "bosh og‘riq bo‘lmoq", ya‘ni "qiyin" degan so‘zga teng. Biror ishni anchadan beri qiynalib qilgan odamga bu ishni qilish qiyinligini ifodalaydi.

천리길도 한 걸음부터- "Uzoq yo‘l ham birinchi qadamdan boshlanadi." Ushbu maqol o‘zbek tilidagi "Boshliq bo‘lish oson boshlamoq qiyin" maqoliga to‘g‘ri keladi.

가는 말이 고와야 오는 말도 곱다- ushbu maqol o‘zbek tilidagi "Salomga yarasha alik" maqoliga to‘g‘ri keladi. Odamlar sizga qanday munosabatda bo‘lishsa, siz ham shunday javob qaytarishingiz kerakligini ta‘kidlayapti.

So‘zma-so‘z tarjima qilinganda "ketgan gap yaxshi bo'lsa qaytadigan gap ham yaxshi bo'ladi" degan ma'noni bildiradi.

돌다리도 두드려 보고 건너라- ushbu maqol o‘zbek tilidagi "Yetti o‘lchab, bir kes" maqoliga to‘g‘ri keladi. Biror bir ishni qilishingizdan avval yaxshilab o‘ylab olishingiz kerak. Shoshilib qaror qabul qilishingiz kerak emas degan g‘oyani ilgari suryapti.

앞뒤를 가리지 않다-ushbu maqolni o‘zbek tiliga tarjima qilsak,oldi-orqasiga qaramasdan ish qilmoq degan ma'noni anglatadi. Ushbu maqol o‘zbek tilidagi "Shoshilgan kishining pushaymoni ko‘p" yoki "Sanamay sakkiz dema, o‘ylamay o‘ttiz" kabi maqollariga to‘g‘ri keladi.

티끌 모아 태산-ushbu hikmatli so‘z o‘zbek tilidagi oz-oz o‘rganib dono bo‘lur,qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur hikmatli so‘ziga to‘g‘ri keladi.

엮질러진 물-"O'tib ketgan yomg'irning ketidan o'pkalama". "O'tgan ishga salovat".

소 잃고 외양간 고친다-Hayitdan keyin hinani oyoqqa qo'yish. Ushbu maqol o‘tib ketgan ishdan keyin nima qilsak ham foydasi yo‘qligini ko‘rsatib beradi. Ushbu maqol so‘zma-so‘z tarjima qilinganda "sigirni yo‘qotib keyin omborni ta'mirlash" degani.

윗물이 맑아야 아랫물이 맑다-"Baliq boshidan sasiydi".

발 없는 말이 천리 간다- ushbu maqolni so‘zma-so‘z tarjima qilinganda "Oyoqsiz gap uzoqqa boradi" degan ma'no chiqadi. Boshqa tillardagi ma'lumotlarni tarjima qilayotganda ma'no har doim ham bir xil chiqmaydi, chunki har bir tilning o‘z til qonun-qoidalari va til me'yorlari mavjud. Shuning uchun ikki til o‘rtasidagi maqol va iboralarni solishtirishda ma'nosi qaysi maqolga yoki iboraga to‘g‘ri kelsa, tarjimasi o‘sha deb olinadi va o‘sha maqol yoki ibora biz solishtirayotgan maqol va ibora bilan tenglashtiriladi.

O‘zbek tilida aynan tarjimasini keltirib bo‘lmaydi, shuning uchun ma'nosiga qarab solishtiriladi va qiyoslanadi.

손을 떼다-"qo'l siltab tashlab ketmoq", ya'ni biror ishni oxiriga yetkazmay yarim yo‘lda tashlab ketish. Ushbu maqol koreys tilida biror ishni qilishni to‘xtatganda ishlatiladi. O‘zbek tilida aynan bunday ko‘rinishdagi maqol yo‘q, lekin "Qolgan ishga qor yog‘ar" maqoliga ma'nosi yaqin.

콧대가 높다-"burni baland" ushbu ibora o‘zbek tilida ham mavjud bo‘lib, maqtanchoq insonlar uchun ishlatiladi.

이를 갈다-"tish qayramoq" ushbu ibora bir insonning boshqa bir inson bilan aloqalari yaxshi emasligini ko‘rsatdi va jahl qildi degan ma'noni anglatadi.

Xulosa qilib aytganda,har bir tilning ifodaliligi va ta'sirchanligini ibora va maqollar yanada orttirib beradi. Doim ham tarjimasi to‘liq bir xil chiqmaydi, lekin ma'nosi orqali tenglashtiriladi. Bu maqolada koreys tili o‘rganuvchilariga yordam tariqasida kichkina material sifatida tayyorlandi va ba'zi maqol va iboralar yoritib berildi. Maqol va iboralarning

ma'nosi aniqroq va chiroyliroq chiqishi uchun o'zbek tilidagi ma'nosi yaqin maqollar bilan tenglashtirildi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.한러사전. 러시아어어문학사. – 서울:한국러시아학회편. 2004.
- 2.O'zbek tilining izohli lug'ati. I.I. – Moskva: Russkiy yazik, 1981.